

O'ZIMNI BOSHQARAMAN

17



Madina, har kuni ertalab maktabga ketguncha shuncha ishga qanday ulgurasan? Men ertalab soat 7 da zo'rg'a uyg'onaman.



Qo'ng'iroqni soat 6 ga qo'ygin-da, jiringlagan zahoti o'rningdan turib, yuvin. Keyin badantarbiya qilib, zarur ishlarni qilishni boshla.

Yaxshi, harakat qilib ko'raman.



Ertadan boshlab 21 kun davomida soat 6 da turib, badantarbiya qilaversang, o'rganib qolasan. Soatsiz ham uyg'onadigan bo'lasan.

"Yomon odatlarni ertaga emas, bugun tashlash osonroq bo'ladi".

Konfutsiy



Har bir inson yaxshilikka intiladi, hamma ishi baroridan kelishini xohlaydi. Lekin faqat xohishning o'zi bilan ish bitmaydi. Odam dangasa, o'yinqaroq bo'lsa, xohlagan narsasiga erisha olmaydi.

Tishingizni har kuni yuvib turmasangiz, u oppoq bo'lmaydi. Har kuni kitob o'qimasangiz, bilim ololmaysiz. Muntazam mashq qilmasangiz, chempion bo'lolmaysiz. Shuning uchun har bir insonga ichki intizom, iroda kerak.



Istagan narsaga erishish uchun istamagan narsani qilishga o'zini majbur qila olish ichki intizom deyiladi.



Rasmga qarab, ichki intizomni kuchaytirishga nimalar yordam berishini, nimalar esa unga xalaqit berishini aytib bering.

Kun tartibiga rioya qilish

Sport bilan shug'ullanish

Yarim tungacha televizor ko'rish, Internetni titkilash

Vaqtни qadrlab, uni behuda ketkazmaslik

Maqsadni belgilash, reja tuzish

Tartibsizlik

Dangasalik

Bahonalar



Karim bilan Zafar basketbol to'garagiga a'zo bo'ldi. Karim birorta mashg'ulotni qoldirmadi. Zafar esa bir borib, bir bormay yurdi. Bir safar "Shu o'yinni oxirigacha o'ynab olay", dedi, bir safar "Zo'r film ekan, ko'rib olay", dedi, yana bir safar esa dars qilishga ulgurmaganini bahona qildi.



Bolalardan qaysi biri sportda g'olib bo'ladi? Nima uchun?



Ustoz sabog'i

Bir donishmand bo'lgan ekan. Bir kuni uning oldiga yosh yigit kelib, shogird tushibdi. Oradan bir yil o'tgach, yigit ustoziga shunday debdi:

– Ustoz, bir yildan beri uyingizda faqat ish qildirasiz, qachon ilm o'rgatasiz? Men sizning oldingizga shuning uchun kelganmidim?

– Sabr qil, o'g'lim, – dedi ustoz. – Hali vaqti kelmadi. Pastdagi vodiya borib, ko'chat ekib, undan katta daraxt o'stir. Ungacha men o'ylab ko'raman.

Vodiy uzoq ekan, yetib borguncha shogird ancha qiynalibdi. Yo'l chetidan bir ko'chatni kovlab olib, uni o'sha vodiya ekibdi.

Shundan keyin shogird ko'chatni sug'orish uchun ustozning kulbasidan vodiya kuniga ikki marta qatnaydigan bo'libdi. U qor-yomg'ir demay, qishin-yozin har kuni ertalab chiqib ketib, kechqurun charchab, zo'rg'a yurib kelarkan.

Bir kuni shogird kechqurun kulbaga qaytib kelmabdi.

Shogird ko'chatni sug'orish va yo'lga ortiqcha kuch sarflamaslik uchun vodiya bir ariqchaning yoqasiga kulba qurib, o'sha yerda yashay boshlabdi. U ko'chatni astoydil parvarishlar, ortiqcha shoxlarini kesar, yozda issiqdan, qishda sovuqdan himoya qilar ekan.

Oradan bir yil o'tibdi.



Shogirdning mehnatlari bekor ketmabdi. Ko'chat baland, mustahkam daraxtga aylanibdi.

Bir kuni shogird ertalab uyg'onib, kulbadan chiqsa, ariq yonidagi daraxt tagida ustoz o'tirgan ekan.

– Ustoz! – xursand bo'libdi shogird. – Kelganingiz juda yaxshi bo'ldi! Men sizdan kechirim so'ramoqchi edim. Ishonchingizni oqlay olmadim, sizga munosib shogird bo'la olmadim. Bu yerda qolganimdan keyin mendan ranjigandirsiz? Lekin ko'chatinga qarab turmasam bo'lmas edi. Qarasam, bor kuchim, vaqtim yo'lga ketyapti. Shuning uchun kulba qurib, shu yerda yashab turdim. Endi meni shogirdlikka olmasangiz ham kerak...

Shogirdning kuyib-pishib aytgan so'zlarini eshitgan ustoz shunday debdi:

– Yo'q, o'g'lim. Sen bu bir yil ichida faqat ko'chat o'stirganing yo'q, balki ilm olish uchun kerakli fazilatlarni ham hosil qilding. Buni men mana shu daraxtingga qarab bildim. Ekkan paytingda u ingichka, nimjon, nozik ko'chat edi. Salgina shamolga ham egilib, bo'ronlar uni ildizi bilan qo'porib tashlashiga sal qolar edi. Novdalari bir-biriga o'ralashib, barglari yulib ketardi. Sen ham xuddi shunday eding. Mas'uliyatsiz va sabrsiz eding, salga jahling chiqib ketardi. Senda intizom yo'q edi. Endi esa daraxtning ildizi – sening mas'uliyating, tanasi – sening sabring, shoxlari – xotirjamliging, barglari esa ilming bo'ldi.



1. Nima uchun shogird vodiya qolishga qaror qildi?
2. Shogird qaysi fazilatlar yetishmas edi?
3. Nima uchun shogird sabrli, mas'uliyatli, intizomli bo'lmaganicha ustoz unga ilm o'rgatmay turdi?



Tuxum yerga kirib, chechak bo'ldi,
Qurt jondan kechib, ipak bo'ldi.
Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmu?!
Pilla qurticha himmating yo'qmu?!

Alisher Navoiy



**“Men bu yilda nimalarni o'rgandim?”
degan mavzuda qisqa hikoya yozing.**